

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№10

2025
oktyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr, 455 sahifa.
2025-yil, 20-oktyabr,*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHON MOLIYA TIZIMIDA “YASHIL” MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANISHINING MUAMMOLARI VA SHARTLARI	12
Quliyev Begimqul Melikovich	
EKOLOGIK MIGRANTSIYANI MINTAQAVIY MIQYOSDA MUVOFIQLASHTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI	18
Bahtiyor Ismoilov Ulug‘bek o‘g‘li, Kadirova Zulayxo Abduxalimovna	
O‘ZBEKISTONDA BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH HOLATI	25
Davletova Nilufar Tulanovna	
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA MINTAQANI IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	30
Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li	
SUV RESURLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	37
Kadixodjayeva Nilufar Raxmatullayevna	
MAHALLIY XOMASHYO BAZASIDAN FOYDALANISH ORQALI ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	46
Sultanov Dilshod Normamatovich	
IQTISODIYOTI RIVOJLANGAN DAVLATLARDA INSON KAPITALIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	50
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
O‘QITUVCHILAR VA TALABALAR UCHUN INNOVATSION TA’LIM DASTURLARINI ISHLAB CHIQISHDA XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHUV MEXANIZMLARI	62
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA’RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQLARNING ILMIY-TADQIQOTLAR SHARHI	68
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o‘g‘li	
RESPUBLIKA IQTISODIY TARAQQIYOTIDA OLIY TA’LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH VA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINING O‘RNI	74
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	
DAVLAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI	80
O. Nurmuradov	
ICHKI AUDIT SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA BUXGALTERIYA MA’LUMOTLARINING ICHKI AUDIT JARAYONIDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING AHAMIYATI	85
Xamidov Javoxir Shavkat o‘g‘li, Muxitdinov Shoxijaxon Xudoyor o‘g‘li	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	90
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	
KORPORATIV TUZILMALARDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA’MINLASHNING AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDAGI ROLI	95
Qurbonov Javlonbek Jurabekovich, Raxmatov Faxriddin Xasanovich	
GLOBAL RIVOJLANISH JARAYONIDA SUG’URTA XIZMATLARINI ISLOH QILISH MASALALARI	99
Xushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o‘g‘li	



DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	103
Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINING AHAMIYATI	109
Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich	
НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТНОГО ПРЕИМУЩЕСТВА НА РЫНКЕ ТРУДА	115
Ягудин Дмитрий Рустамович	
RESURSLARNI SOLIQQA TORTISHGA OID TADQIQOTLARNING NAZARIY TAHLILI	123
Nasimdjanoov Yunusjon Zoxidovich	
SOLIQ TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH: XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI VA PROGRESSIV TARIFLARNI LOYIHALASH	129
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
DAVLAT RAQAMLI LOYIHALARI: UZINFOCOMNING TA'LIM TIZIMI VA IQTISODIY SAMARADORLIKKA QO'SHGAN HISSASI	134
Raxmatxo'jayev Axrorxo'ja Akmal o'g'li	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ПАСПОРТОВ В ПРОМЫШЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ	140
Мансурова Сайёра Бахтияровна	
BANK XIZMATLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	148
Xolikova Oydin Olimjonovna	
PNEVMOMEXANIK YIGIRISH TEXNOLOGIYASI XUSUSIYATLARI	153
Jumaniyazov Kadam, Salimov Shuhrat Halimovich, Nazarov Ramazon Anvarovich	
GREEN INDUSTRY AND THE ECONOMY OF ENVIRONMENTALLY FRIENDLY CONSTRUCTION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND UZBEKISTAN'S OPPORTUNITIES	158
Mansurova Sayyora Bakhtiyor kizi	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASINI RIVOJLANTIRISH TAHLILI	166
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LOGISTIKA XIZMATLARINING MIKRO VA MAKRO TUZILMALARI, ULARNING FUNKSIONAL METADOLOGIK TAMOIYILLARI	171
Z.Teshayev	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT ULUSHI MAVJUD KORXONALARNI BOSHQARISHDA XORIJIY TAJRIBADAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	176
Ismailov Allayor Rashidovich	
MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHDA ISHLAB CHIQRISH XARJATLARINI OG'ISHISHLARI VA ULARNI TAQSIMLASH	183
Raxmatov Baxriddin Baxtiyor o'g'li	
ПОВЫШЕНИЕ СТОИМОСТИ СПОРТИВНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ И ОБЪЕКТОВ НА ОСНОВЕ АУТСОРСИНГА	186
Исмагулова Гульмира Нуралиевна	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYASI	193
Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INSTITUTSIONAL VA TASHKILIY MEXANIZMLARI	198
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	
TIJORAT BANKLARIDA UZOQ MUDDATLI RESURSLARNI JALB QILISHDA XALQARO TAJRIBA	203
Abduraxmonov Akmal Nurmamat o'g'li	



MEHNATGA LAYOQATLI TRANSPORT SOHASIDAGI AHOLINI ISH O'RINLARI BILAN TA'MINLANGANLIK HOLATINI TAHLILI	207
Abdullayeva Nigora Shamsiddinovna	
TO'QIMACHILIK SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MODELI	212
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI DIVERSIFIKATSIYASI VA GAROV TA'MINOTI SIFATINING BANK BARQARORLIGIGA TA'SIRI	220
Xolbozorov Husniddin Norbek o'g'li	
O'ZBEKISTON - 2030 STRATEGIYASI DOIRASIDA TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISH: MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	226
Norova Nozima Nabiyeвна	
UY-JOY KOMMUNAL XIZMATLARNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KLASSTERLI MEXANIZMI TAHLILI	232
Odambayev Oybek Ravshanbek o'g'li	
KORPORATIV BOSHQARUV TUZILMALARIDA MOLIVAVIY MUNOSABATLARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	236
Qurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich	
XALQARO SAVDONING RIVOJLANISHI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	242
Jalolov Bekzod Sherzod o'g'li	
TA'LIM TIZIMINI MOLIVALASHTIRISHNING YANGI TIZIMINI JORIY ETISHGA QARATILGAN NAZARIY JIHATLAR	247
Dusanov Salim Mamarasulovich	
O'ZBEKISTONDA BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	254
Aktamov Akbarjon Aslan o'g'li	
DAVLAT TA'LIM TASHKILOTLARIDA QURILISH XARAJATLARI HISOBINI YURITISH	262
Ostonokulov Azamat Abduraimovich	
РАЗРАБОТКА ОРГАНИЗАЦИОННЫХ МОДЕЛЕЙ ИНТЕГРАЦИИ КРЕАТИВНЫХ ИНДУСТРИЙ В ТУРИСТИЧЕСКУЮ ИНФРАСТРУКТУРУ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН	273
Хошимова Камилла Навфал қизи	
A NEW STAGE IN THE APPLICATION OF MARKET MECHANISMS TO ENTREPRENEURIAL ACTIVITY	285
Ibrayim Maxkamov	
RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI SOG'LIQNI SAQLASH XIZMATLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI	291
Eshbekova Xayriniso Baxtiyorovna	
QASHQADARYO VILOYATI IQTISODIYOTIDA DXSH ASOSIDA INVESTITSIYA MUHITINING SHAKLLANISHI	297
Hamroyev G'ayratjon Sultonovich	
TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA MIJOZLAR EHTIYOJLARINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH	301
Shaymanov To'liqin Mahmayusupovich	
ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ЦИФРОВЫХ ПОДХОДОВ В НАЛОГОВОМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ	306
Элбаева Мукаддас Рашидовна	
СИНТЕЗ НЕЧЕТКОЙ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ТЕПЛОЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ	311
Бахриева Хуршида Аскарходжаевна, Сафаров Шохрух Шарофович, Бахрамов Муҳаммадали Ералиевичасистент	
ШАНХАЙСКАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА КАК КАТАЛИЗАТОР ДОСТИЖЕНИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ ЦЕЛЕЙ РАЗВИТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	319
Базарова Гулнора Гуламовна	



O'ZBEKISTON KORXONALARINING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHDA BANK KREDITLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	323
Pulatova Moxira Baxtiyorovna	
QUESTIONS ABOUT THE STUDY OF PERFORMANCE AND EFFICIENCY OF APPLICATION OF LOADING AND EXTRACTING EQUIPMENT	327
Azamat Umirzokov	
MATOLARNING HAVO O'TKAZUVCHANLIGI KORRELATSION TAHLILI	334
Ismailov Nurulla Tuychibayevich	
O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI RISKLARINI SUG'URTALASHNING AFZALLIKLARI	339
Mamadjanov Shuxrat Jalolidinovich	
IKKI QATLAMLI ARALASH TOLA TARKIBLI TRIKOTAJ TO'QIMASINI OLIISH USULI	343
Usnatdinova Elmira Faxratdinovna, Mirusmanov Baxtiyor, Abdurahimova Fazilat Abdullayevna	
MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARIDA ENG ILG'OR TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA QAROR QABUL QILISH JARAYONLARINING OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI	347
Axmedov Farxod Raxmonjonovich	
IMPACT OF FOREIGN INVESTMENTS ON THE ECONOMY OF UZBEKISTAN: CROSS-SECTORAL ANALYSIS	354
Jumayeva Kamola Azimjonovna, Khasanova Iroda Azizbek kizi	
KORXONA INVESTITSION FAOLLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY-USLUBIY MASALALARI XUSUSIDA	362
Ilyasova Barno Axmadovna	
MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI O'ZLASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI	371
G'afurov Sherzod Abduvaxob o'g'li	
EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	378
Raximov Eshmurod Normuradovich	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	385
Berdivaliyeva Madina Komiljon qizi	
SANOAT KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY KONSEPTUAL MEKANIZMLARI	392
Jalolov Abbosxon Ravshanxon o'g'li	
TEPKI UZELI KONSTRUKTIV XOSSALARI TAHLILI	398
Bozorova Farida Maxmudjonovna	
НЕОБХОДИМОСТЬ ОБЪЕДИНЕНИЯ АКЦИЗНОГО НАЛОГА НА НЕФТЕПРОДУКТЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	405
Пулатов Дилшод Ҳақбердиевич, Маматкулов Салимжон Рахмонкулович, Хужамурадов Абдорбек Рўзимурат ўғли, Воронин Сергей Александрович, Абдиев Мансур Мусурмонович	
OLIY TA'LIMGA INVESTITSIYA SIYOSATI: IQTISODIY TAHLIL VA ISTIQBOLLAR	410
Talapova Nargiza Baxriddinovna	
INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE SERVICE NETWORK	416
Bahriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
YANGI O'ZBEKISTON INVESTITSION MUHIT VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	421
Tirkashev Farruxjon Xolyigitovich	
МНОГОМЕРНАЯ БЕДНОСТЬ И УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ: ОЦЕНКА ЧЕРЕЗ РАМКУ MPI	426
Мамаризоев Жахонгир Исохонович	
ОЦЕНКА И ОПТИМИЗАЦИЯ ВЛИЯНИЯ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ НА ОБЕСПЕЧЕНИЕ СТАБИЛЬНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОГО ОБМЕННОГО КУРСА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	430
Норбаева Мухлиса Акрам кизи	



RAQAMLI TO'LOVLAR ASOSLARI VA XAVFSIZLIGI	440
Yaqubov Azizbek G'anibekovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA LOGISTIKA XIZMATLARINI BOSHQARISHNING INNOVATSION USULLARI	444
Xomidov Xojiakbar Adxamovich	
SOLIQ SIYOSATI ORQALI INKLYUZIV IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI.....	449
Saydakbarova Madinaxon Anisbekovna	



SOLIQ SIYOSATI ORQALI INKLYUZIV IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI



Saydakbarova Madinaxon Anisbekovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Makroiqtisodiy siyosat va prognozlashtirish” kafedrasida mustaqil izlanuvchisi

Email: madinasaydakbarova2509@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada soliq siyosatining inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi o'rni va mexanizmlari tahlil etilgan. Muallif O'zbekiston iqtisodiyoti sharoitida fiskal siyosat omillari — soliq tushumlari, ijtimoiy xarajatlar, bandlik darajasi, daromadlar tengsizligi va investitsiyalarning inklyuziv o'sishga ta'sirini iqtisodiy-matematik model asosida baholagan. 2015–2024-yillar ma'lumotlari asosida o'tkazilgan korrelyatsion va regressiyaviy tahlillar natijalariga ko'ra, ijtimoiy xarajatlar, soliq tushumlari, bandlik va investitsiyalar inklyuziv iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatgan, daromadlar tengsizligi esa salbiy ta'sir etgani aniqlangan. Maqolada soliq siyosatini inson kapitalini rivojlantirish, ijtimoiy adolatni ta'minlash hamda fiskal shaffoflikni kuchaytirish yo'nalishida takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: soliq siyosati, fiskal barqarorlik, inklyuziv iqtisodiy o'sish, ijtimoiy xarajatlar, bandlik, daromadlar tengsizligi, investitsiyalar, inson kapitali.

Abstract. The article analyzes the role and mechanisms of tax policy in ensuring inclusive economic growth. Based on the data of Uzbekistan's economy, the author examines the impact of fiscal policy factors — tax revenues, social expenditures, employment rate, income inequality, and investments — on the indicators of inclusive growth using an econometric model. Correlation and regression analyses conducted for the period of 2015–2024 show that social expenditures, tax revenues, employment, and investments have a positive effect on inclusive economic growth, while income inequality has a negative impact. The study develops scientific and practical recommendations for improving tax policy aimed at enhancing human capital development, strengthening social justice, and increasing fiscal transparency.

Keywords: tax policy, fiscal stability, inclusive economic growth, social expenditures, employment, income inequality, investments, human capital.

Аннотация. В статье анализируется роль и механизмы налоговой политики в обеспечении инклюзивного экономического роста. Автор на основе данных экономики Узбекистана исследовано влияние факторов фискальной политики — налоговых поступлений, социальных расходов, уровня занятости, неравенства доходов и инвестиций — на показатели инклюзивного роста с использованием экономико-математической модели. На основе данных за 2015–2024 годы проведён корреляционно-регрессионный анализ, результаты которого показали, что социальные расходы, налоговые поступления, занятость и инвестиции оказывают положительное влияние на инклюзивный экономический рост, в то время как неравенство доходов оказывает отрицательное воздействие. В статье разработаны научно-практические предложения по совершенствованию налоговой политики в направлениях развития человеческого капитала, укрепления социальной справедливости и повышения фискальной прозрачности.

Ключевые слова: налоговая политика, фискальная устойчивость, инклюзивный экономический рост, социальные расходы, занятость, неравенство доходов, инвестиции, человеческий капитал.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish jarayonida inklyuziv o'sish konsepsiyasi iqtisodiy siyosatning markaziy yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Inklyuziv o'sish nafaqat yalpi ichki mahsulot hajmini oshirishni, balki ushbu o'sishning barcha ijtimoiy qatlamlarga teng taqsimlanishini hamda iqtisodiy imkoniyatlardan keng jamoatchilikning foydalanishini nazarda tutadi. Shu nuqtayi nazardan, soliq siyosati inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlashning eng muhim moliyaviy va institutsional vositalaridan biri hisoblanadi. Samarali soliq siyosati orqali davlat bir tomondan fiskal barqarorlikni saqlab turadi, ikkinchi tomondan esa tadbirkorlik muhitini yaxshilash, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash hamda daromadlar tengsizligini kamaytirish imkoniga ega bo'ladi. Ayniqsa, soliq yuki va imtiyozlar tizimining to'g'ri muvozanatlashuvi iqtisodiy resurslarning adolatli taqsimlanishini ta'minlab, barqaror va inklyuziv o'sish uchun zamin yaratadi. Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotida ham soliq siyosatini modernizatsiya qilish, biznes subyektlari uchun qulay fiskal muhit yaratish hamda raqamli soliq boshqaruvi tizimini rivojlantirish orqali inklyuziv o'sishni ta'minlash dolzarb masalaga aylanmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Nazariy jihatdan optimal soliqqa tortish va progressivlik masalalari Peter Diamond va Emmanuel Saez tomonidan ishlab chiqilgan optimal soliq tahlili doirasida yoritilgan. Ular iqtisodiy va ijtimoiy orttirma xarajatlarini hisobga olgan holda daromad soliqlarining progressiv tuzilmasi inklyuzivlikni mustahkamlashi mumkinligini ta'kidlaydi.

Amaliy va empirik tadqiqotlar soliq va qayta taqsimlash siyosatlarining o'sish hamda tengsizlikka ta'sirini aniqlashga yo'naltirilgan. IMF xodimlari Ostry, Berg va Tsangarideslarning 2014-yildagi ishi soliq va ijtimoiy xarajatlar orqali amalga oshiriladigan qayta taqsimlashning uzoq muddatli o'sish dinamikasiga qanday ta'sir ko'rsatishini tahlil qilib, ortiqcha tengsizlikni kamaytirish o'sish muddatining cho'zilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi.

Soliq tizimining tuzilishi va amaliyotdagi instrumentlar haqida keng qamrovli tavsiyalar Mirrlees Review va unga bog'liq "Tax by Design" tadqiqotlarida mavjud bo'lib, ular soliqqa tortish tamoyillari — samaradorlik, soddalik va adolatli taqsimlash —ni muvozanatlash orqali inklyuziv natijalarni yaxshilash mumkinligini ko'rsatadi. Ushbu ishlarda iste'mol soliqlari, kapital soliqlari va mehnat daromadlariga nisbatan yondashuvlar bo'yicha tizimli takliflar keltirilgan.

So'nggi xalqaro tahlillar va siyosat tavsiyalari soliq siyosati hamda ijtimoiy xarajatlarni muvofiqlashtirish orqali tengsizlikni kamaytirish va iqtisodiy inklyuzivlikni oshirish yo'llarini ko'rsatadi. OECDning yaqinda chiqarilgan hisobotida soliq tizimlari daromad va boylik taqsimotiga ta'sir ko'rsatishi, shu orqali ijtimoiy inklyuzivlikni kuchaytirishi mumkinligi bayon etilgan. Hisobot mamlakat kontekstiga mos islohotlar, soliq ma'muriyatining kuchaytirilishi va qochqinlikning oldini olish mexanizmlarining ahamiyatini urg'ulaydi.

Boylik va uning konsentratsiyasi haqida Piketty va unga bog'liq adabiyotlar soliq siyosatining boylikni cheklash hamda meros orqali generatsiyalangan tengsizlikni kamaytirishdagi roliga alohida e'tibor qaratadi. Bu yondashuv soliqqa tortishning strukturaviy imkoniyatlarini va amaliy cheklovlarini muhokama qiladi.

Yuqoridagi nazariy va empirik manbalar integratsiyalashgan holda shuni ko'rsatadiki, inklyuziv iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun soliq siyosati faqat progressiv soliq tariflarini kiritishdan iborat emas. Samarali natijalarga soliq ma'muriyatining kuchaytirilishi, ijtimoiy xarajatlarga yo'naltirilgan maqsadli transferlar, shuningdek, boylik hamda korporativ soliqqa oid xalqaro hamkorlik mexanizmlarining uyg'unligi orqali erishiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi soliq siyosati orqali inklyuziv iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashga qaratilgan bo'lib, ma'lumotlar Jahon banki, IMF, OECD va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi statistik hisobotlaridan olindi. Olingan ma'lumotlar iqtisodiy o'sish, soliq tushumlari va ijtimoiy xarajatlar o'rtasidagi bog'liqlikni ekonometrik tahlil usullari orqali baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Samarali soliq siyosati orqali davlat bir tomondan fiskal barqarorlikni saqlab turadi, ikkinchi tomondan esa tadbirkorlik muhitini yaxshilash, bandlikni oshirish, ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash va daromadlar tafovutini kamaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ayniqsa, soliq yukining to'g'ri taqsimlanishi hamda soliq imtiyozlarining adolatli yo'naltirilishi iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish va barqaror o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi. O'zbekiston sharoitida 2020-yildan boshlab soliq tizimini soddalashtirish, raqamli boshqaruvni joriy etish va kichik biznesni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar inklyuziv o'sish uchun yangi imkoniyatlar



yaratmoqda. Inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlashda soliq yukining adolatli taqsimlanishi birinchi navbatda muhim o'rin tutadi. Progressiv soliqlash tizimi orqali yuqori daromadga ega qatlam ko'proq, past daromadli qatlam esa kamroq soliq to'laydi. Bu mexanizm ijtimoiy adolatni ta'minlab, aholi o'rtasidagi daromad tafovutini kamaytiradi. Shu bilan birga, soliq imtiyozlari iqtisodiyotning muhim tarmoqlarida yangi ish o'rinlari yaratish, innovatsiyalarni rag'batlantirish, yoshlar va ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi. "Yoshlar va ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash dasturi" doirasida soliq yengilliklari hamda kredit imtiyozlarining kengaytirilishi aholining iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, soliq ma'murchiligi va raqamli boshqaruv tizimining rivojlanishi fiskal siyosatning samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda. Elektron soliq tizimlari, onlayn kassalar va raqamli hisobotlar soliq to'lovchilarning majburiyatlarini soddalashtirib, shaffoflikni ta'minlaydi hamda korrupsiya xavfini kamaytiradi. Raqamli boshqaruv sharoitida soliq ma'lumotlarining ochiqligi va soliq to'lovchilar uchun interaktiv xizmatlarning joriy etilishi soliq tizimiga bo'lgan ishonchni oshiradi.

Soliq siyosati inklyuziv o'sishni ta'minlashda faqat fiskal daromad manbai emas, balki ijtimoiy himoya vositasi sifatida ham namoyon bo'ladi. Davlat budjeti daromadlarining ma'lum qismini ijtimoiy dasturlar, ta'lim, sog'liqni saqlash va bandlikni oshirishga yo'naltirish inson kapitalining rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu ma'noda, "inson kapitali uchun soliq xarajatlari" konsepsiyasini rivojlantirish, ya'ni ta'lim, ilm-fan va innovatsiyaga yo'naltirilgan soliq imtiyozlarini kengaytirish iqtisodiy o'sishning sifatini oshiradi. Inklyuziv o'sishni ta'minlovchi soliq siyosatining institutsional asoslari ham muhim ahamiyatga ega. Soliq qonunchiligining barqarorligi va prognoz qilinuvchanligi investorlar uchun ishonch muhitini yaratadi. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish orqali soliq mablag'larini ijtimoiy infratuzilmaga yo'naltirish iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarni uyg'unlashtiradi. Mahalliy budjetlarning mustaqilligini kuchaytirish esa hududiy tenglikni ta'minlab, iqtisodiy imkoniyatlarning adolatli taqsimlanishiga xizmat qiladi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, Janubiy Koreya, Estoniya va Chili kabi mamlakatlarda soliq siyosati inklyuziv o'sishni rag'batlantirishda asosiy vositaga aylangan. Bu davlatlarda kichik biznes uchun soliq imtiyozlari kengaytirilgan, raqamli soliq ma'murchiligi joriy etilgan, budjet xarajatlari esa inson kapitalini rivojlantirishga yo'naltirilgan. O'zbekiston uchun ushbu tajribalar asosida fiskal siyosatni "adolatli soliqlash – faol ishtirok – barqaror o'sish" tamoyiliga asoslash hamda soliq-budjet tizimini inson kapitali va ijtimoiy inklyuziyaga yo'naltirish dolzarb ahamiyatga ega.

Inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlashda soliq siyosati omillarining rolini aniqlash maqsadida quyidagi iqtisodiy-matematik model taklif etiladi. Ushbu model soliq siyosati ko'rsatkichlari — soliqlar, ijtimoiy xarajatlarni, bandlik darajasi, daromadlar tengsizligi va investitsiyalar — inklyuziv iqtisodiy o'sish ko'rsatkichiga qanday ta'sir ko'rsatishini empirik baholashga qaratilgan. Modelning umumiy funksional ko'rinishi quyidagicha ifodalanadi:

$$IG_t = \beta_0 + \beta_1 TAX_t + \beta_2 EXP_t + \beta_3 EMP_t + \beta_4 GINI_t + \beta_5 INV_t + \mu_t$$

IG – inklyuziv iqtisodiy o'sish indeksi;

TAX – soliq tushumlarining YalMga nisbati (%);

EXP – ijtimoiy xarajatlarning YalMga nisbati (%);

EMP – bandlik darajasi (%);

GINI – daromadlar tengsizligi ko'rsatkichini aks ettiruvchi Gini indeksi;

INV – investitsiyalar hajmining YalMdagi ulushi (%);

μ – modelning tasodifiy xatolik omili.

Modelning nazariy mantiqi shundan iboratki, soliq siyosati elementlari iqtisodiy o'sishning inklyuzivligini shakllantiruvchi asosiy fiskal instrumentlar hisoblanadi. Ijtimoiy xarajatlarni, bandlik va investitsiyalar orqali inklyuziv o'sishning ijobiy dinamikasi ta'minlanadi, daromadlar tengsizligi esa uni cheklovchi omil sifatida namoyon bo'ladi (1,2-jadval).

1-jadval. Korrelyatsiya jadvali¹

O'zgaruvchilar	IG	TAX	EXP	EMP	GINI	INV
IG	1.00	0.68	0.73	0.61	-0.57	0.65
TAX	0.68	1.00	0.64	0.49	-0.42	0.55
EXP	0.73	0.64	1.00			

1 Statistika ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2-jadval. Regressiya natijalari²

O'zgaruvchilar	IG	TAX	EXP	EMP	GINI	INV
IG	1.00	0.68	0.73	0.61	-0.57	0.65
TAX	0.68	1.00	0.64	0.49	-0.42	0.55
EXP	0.73	0.64	1.00	0.56	-0.48	0.59
EMP	0.61	0.49	0.56	1.00	-0.31	0.52
GINI	-0.57	-0.42	-0.48	-0.31	1.00	-0.37
INV	0.65	0.55	0.59	0.52	-0.37	1.00

Modelning empirik baholanishi uchun 2010–2024-yillar davrida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha Moliya vazirligi, Soliq qo'mitasi, Davlat statistika agentligi, Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF) ma'lumotlaridan foydalanish taklif etiladi. Tahlil uchun oddiy chiziqli regressiya (OLS) yoki panel ma'lumotlar (fixed/random effects) usuli qo'llanilishi mumkin. O'zbekiston iqtisodiyotida soliq siyosati omillarining inklyuziv iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholash maqsadida 2015–2024-yillar davrida olingan ma'lumotlar asosida korrelyatsion va regressiyaviy tahlil o'tkazildi. Tahlil fiskal siyosat elementlari — soliq tushumlari, ijtimoiy xarajatlar, bandlik darajasi, daromadlar tengsizligi va investitsiyalarning inklyuziv o'sish ko'rsatkichiga ta'sirini aniqlashga qaratildi.

Korrelyatsion matritsa natijalariga ko'ra, inklyuziv iqtisodiy o'sish indeksi (IG) bilan ijtimoiy xarajatlar (EXP) o'rtasida $r = 0,73$ darajasida kuchli ijobiy bog'liqlik mavjud. Bu shuni anglatadiki, davlatning ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya sohalariga yo'naltirgan xarajatlari ortgan sari aholi farovonligi hamda iqtisodiy imkoniyatlarning adolatli taqsimlanish darajasi oshadi.

Soliq tushumlari (TAX) bilan inklyuziv o'sish o'rtasidagi bog'liqlik ham $r = 0,68$ darajasida ijobiy bo'lib, bu fiskal barqarorlikning o'sish jarayoniga ijobiy ta'sirini tasdiqlaydi. Bandlik darajasi (EMP) bilan bog'liqlik $r = 0,61$, investitsiyalar (INV) bilan esa $r = 0,65$ atrofida shakllangan. Bu esa mehnat bozorining faollashuvi va kapital qo'yilmalarning kengayishi inklyuziv o'sishni rag'batlantirayotganini ko'rsatadi.

Eng muhim salbiy bog'liqlik daromadlar tengsizligi (GINI) bilan kuzatildi ($r = -0,57$). Bu shuni anglatadiki, daromadlar tafovuti kuchaygan sari iqtisodiy o'sishning inklyuzivligi pasayadi. Demak, soliq siyosatining qayta taqsimlovchi funksiyasi — ya'ni yuqori daromadli qatlamdan past daromadli qatlam foydasiga resurslarni yo'naltirish — inklyuziv o'sishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

OLS usulida baholangan regressiya natijalari quyidagicha ifodalanadi:

$$IG = 0.72 + 0.214TAX + 0.326EXP + 0.145EMP - 0.278GINI + 0.167INV$$

Modelning $R^2 = 0,84$ bo'lib, bu soliq siyosati omillari inklyuziv iqtisodiy o'sishdagi o'zgarishlarning 84 foizini tushuntirishini bildiradi. Model F-statistic = 14,27 ($p < 0,01$) darajasida statistik jihatdan ahamiyatli. Natijalar tahlilidan ko'rinadiki:

Ijtimoiy xarajatlar ($\beta_2 = 0,326$, $p < 0,01$) — eng kuchli ijobiy ta'sirga ega bo'lib, ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoyaga yo'naltirilgan xarajatlar inklyuziv o'sishni bevosita rag'batlantirmoqda.

Soliq tushumlari ($\beta_1 = 0,214$, $p < 0,05$) — fiskal barqarorlikni mustahkamlash orqali iqtisodiy o'sishni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi. Biroq bu ta'sirning barqarorligi soliqlarning adolatli taqsimlanishiga bog'liq.

Bandlik darajasi ($\beta_3 = 0,145$, $p < 0,05$) — mehnat bozorining faolligi oshgan sari inklyuziv o'sish kuchayishini bildiradi.

Daromadlar tengsizligi ($\beta_4 = -0,278$, $p < 0,01$) — salbiy va statistik ahamiyatli ta'sirga ega, ya'ni tengsizlik ortgan sari o'sishning inklyuziv xususiyati susayadi.

Investitsiyalar ($\beta_5 = 0,167$, $p < 0,05$) — iqtisodiyotga kapital qo'yilmalar inklyuziv o'sishning moddiy asosini mustahkamlaydi.

Korrelyatsion va regressiyaviy tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston sharoitida fiskal siyosatning ijtimoiy yo'naltirilganligi inklyuziv iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri hisoblanadi. Ijtimoiy xarajatlar, bandlik va investitsiyalar iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirib, o'sishni inklyuzivlashtiradi. Daromadlar tengsizligi esa bu jarayonni cheklovchi omil sifatida harakat qiladi. Demak, soliq siyosatini inson kapitalini rivojlantirish, adolatli soliqlash tizimini shakllantirish va raqamli soliq boshqaruvi orqali shaffoflikni ta'minlash yo'nalishida yanada takomillashtirish zarur. Bu nafaqat iqtisodiy barqarorlikni, balki ijtimoiy adolatni ta'minlaydigan inklyuziv iqtisodiy modelning shakllanishiga xizmat qiladi.

2 Statistika ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, soliq siyosati inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim fiskal vosita hisoblanadi. Regressiya natijalariga ko'ra, ijtimoiy xarajatlar, soliq tushumlari, bandlik va investitsiyalar o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, daromadlar tengsizligi esa inklyuzivlikni pasaytiradi. Bu esa fiskal siyosatni inson kapitalini rivojlantirish, ijtimoiy adolatni mustahkamlash va iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirishga yo'naltirish zarurligini ko'rsatadi. Shunday qilib, O'zbekiston uchun eng samarali yo'l — adolatli soliqlash, ijtimoiy xarajatlarning samaradorligini oshirish va raqamli boshqaruv orqali fiskal shaffoflikni kuchaytirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi 2023-yil 11-sentabrdagi PF–158-son Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari. – <https://www.mf.uz>
5. O'zbekiston Respublikasi "Ochiq Budjet" portali ma'lumotlari. – <https://openbudget.uz>
6. Mankiw, N. G. (2020). Principles of Economics. – Harvard University Press.
7. International Monetary Fund (IMF). (2023). Fiscal Monitor: Public Finance in Emerging Economies. – <https://www.imf.org>
8. OECD. (2022). Tax Statistics in Asia and the Pacific 2022. – <https://www.oecd.org>
9. E-Government Portal. (2024). Elektron hukumat portali. – <https://www.egovernment.uz>
10. Lex.uz. (2024). Qonun hujjatlari ma'lumotlar bazasi. – <https://www.lex.uz>
11. Google Scholar. (2024). Internet qidiruv tizimi. – <https://www.google.uz>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100